

## Tajriba almashinish samarasi

“Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari” kafedrasining yetakchi professor-o’qituvchilari TDTU “Energetika” fakultetining “Elektr ta’minoti” va “Muqobil energiya manbalari” kafedralarida bo’lib, kafedra xodimlarining ilmiy, uslubiy va tarbiyaviy - tashkiliy faoliyati bilan tanishdi va laboratoriya bazasini shakllantirish jarayonini o’rgandi. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari, Elektr ta’minoti va boshqa fanlar bo’yicha ishchi o’quv dasturlari, darslik, o’quv qo’llanmalar va metodik ishlanmalarni shakllantirish bo’yicha tajriba almashildi. Bundan tashqari laboratoriya qurilmalari hozirgi kunda ta’lim uchun qo’yilayotgan talablariga to’liq javob berishi jumladan, ASKUE tizimida ishlovchi quyosh - shamol elektrstansiyasi biz katta qiziqish uyg’otdi. Tashrif yakunida “Elektr ta’minoti” va “Muqobil energiya manbalari” kafedralari bilan hamkorlik shartnomasini tuzish bo’yicha kelishib olindi.



**ET va QTEM kafedrası mudiri PhD D.B.Qodirov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**